# “Tabiiy fanlar rivojlanishining zamonaviy tamoyillari” respublika ilmiy-amaliy anjumani bo’lib o’tmoqda

Xorazm Ma’mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo’limida “Tabiiy fanlar rivojlanishining zamonaviy tamoyillari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani bo’lib o’tmoqda.








14-15-oktyabr kunlariga rejalashtirilgan anjumanning dastlabki kuni yalpi ma’ruzalar bilan boshlandi va shundan keyin anjuman qatnashchilari biologik fanlarning yutuqlari, muammolari va istiqbollari, dorivor o’simlikshunoslik sohasining istiqbollari, qishloq xo’jaligini raqamlashtirish sharoitida agronomiyaning zamonaviy muammolari, ekologiya va tabiatdan foydalanishda resurs tejamkor texnologiyalar, tabiiy fanlarni o’qitishda fan va ta’lim sifati va integratsiyasi kabi sho’balarda o’z ma’ruzalari bilan chiqishlar qildilar. Anjumanda Xorazm Ma’mun akademiyasi ilmiy xodimlari, tayanch doktorantlari, Xorazm viloyati milliy tabiat bog’i xodimlari ishtirok etdilar. Shuningdek ZOOM platformasi orqali respublikamizdagi ko’zga ko’ringan ilmiy tadqiqot institutlari olimlari ham onlayn tarzda qatnashdilar. Olimlar va yosh tadqiqotchilar o’z ilmiy izlanishlari va so’nggi yillarda erishgan muhim natijalari to’g’risida chiqishlar qilishdi va ilm fan sohasidagi so’ngi yangiliklar bilan o’rtoqlashishdi. Anjuman qizg’in bahs-munozaralarga boy bo’ldi.